



YOSH ER-XOTIN O'RTASIDAGI ZIDDIYATLAR VA OILAVIY MUNOSABATLARNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Ikramova Kamola Shavkatovna

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktoranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8177110>

ARTICLE INFO

Received: 16th July 2023

Accepted: 23th July 2023

Online: 24th July 2023

KEY WORDS

Er-xotin munosabatlari, nikoh, ajrim, oilaviy ziddiyatlar, nikoh mustahkamligi, ijtimoiy-psixologik omillar, turmush tajribasi, o'zaro tushunish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada yosh er-xotin munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, oila-nikoh aloqalarining ahamiyatli jihatlari, er-xotin o'rtasida yuzaga keluvchi ziddiyatlarning ijtimoiy-psixologik omillari keng yoritilgan. Shuningdek, oilaviy munosabatlarga doir xorij psixolog olimlarining tadqiqot ishlaridan olingan ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Hozirgi paytda nikoh va oilaviy munosabatlarda zarur o'zgarishlar yuz berayotganini alohida ta'kidlash zarur. Bu holat kengroq ijtimoiy o'zgarishlarni o'zida ifodalamoqda. Ilmiy izlanishlar natijalarining tahliliga ko'ra, “baxtli oila” va “farovon turmush”ni ta'minlovchi muhim jihatlari to'g'risidagi yoshlar tasavvuri bilan oilalilar tasavvuri o'rtasida keskin farq mavjud. Mazkur holat ayniqsa oilaning ma'naviy va moddiy hayoti to'g'risidagi tasavvurlarda yorqin namoyon bo'ladi. Nikohdan keyingi hayot yosh kelin-kuyovning o'z turmush tarzi tajribalari yordamida o'zlarining baxtli oilalarini qurishga undaydi va bu ijtimoiy voqelikni ular real tushuna boshlaydilar.

Turli ziddiyatlardan xoli bo'lgan sog'lom turmush tarzi va baxtli oilaning ijtimoiy-psixologik asoslarini tadqiq etgan yetakchi sosiolog va psixolog olimlarning fikricha, uning 11 ta eng muhim shart-sharoitlari mavjudligi aniqlangan:

1. Er-xotin o'rtasida o'zaro ishonch va bir-birini tushunishi.
2. Alohida uy-joyining mavjudligi.
3. Moddiy-maishiy jihatdan yaxshi ta'minlanganlik.
4. Farzandli bo'lish.
5. Nikohlarining mustahkamligiga ishonch.
6. Oilada bo'sh vaqtni qiziqarli o'tkazish.
7. O'ziga yoqqan ish bilan ta'minlanganlik.
8. Ma'lumotning mosligi.
9. Ish joyining qulayligi.
10. Yaxshi do'stlarning mavjudligi.
11. Er-xotinning erkinligi.

Tadqiqot tahlillariga ko'ra, qaysi bir oilada yuqoridagi yo'nalishlarda imkoniyatlar mavjud bo'lib, sog'lom turmush tarzi ta'minlangan bo'lsa, ana shu oilalarni baxtli oila deyish va uning a'zolarini esa ziddiyatlarsiz baxtli va farovon turmush kechirayotganliklarini e'tirof etish mumkin [1; 108-109].

Taniqli rus psixologi S.V.Kovalevning ta'kidlashicha, yoshlarda oilaviy hayot va turmush tarziga xos to'g'ri tasavvurlar yetarli emasligi sababli turmush qurganlarida oila-nikoh munosabatlaridan qoniqmaslik va turli ziddiyatli holatlar ko'p uchraydi. Shuning uchun yoshlar o'sib ulg'ayadigan va o'qish joylarida ularni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda baxtli



oila va farovon turmushni ta'minlaydigan zarur sifat va fazilatlarni shakllantirish, ularni bo'lg'usi oila to'g'risidagi romantik, shirin xayollardan, har xil manipulyasiya chalg'ishlaridan qutqarish bilan bog'liq tarbiyaviy shart-sharoitlarni yaratish nihoyatda muhimdir [1; 110].

N.N.Obozov oilaviy hayotdan qoniqmaslik, nikohning buzilishi va beqarorligini belgilovchi sabablarni er bilan xotin o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyaning tenglashtirilishidandir deb tushuntiradi. Hozirgi kunda er bilan xotinning ijtimoiy-iqtisodiy tengligi ularning funksional majburiyatlarini taqsimlashda yangicha yondashishni talab qiladi. Funktsiyalarni taqsimlashdagi asos sifatida er bilan xotinning o'zaro ta'sirlashuvining psixologik xususiyatlarini ochish maqsadga muvofiq. Uning fikricha, ijtimoiy-tarixiy tajriba va keyingi tajribalar hozirgi avlodning funktsiyalarini psixologik taqsimlash jarayonini qiynalmasdan va "asoratsiz" bo'lishini kafolatlay olmayapti [2].

Rivojlangan G'arb mamlakatlarida yoshlarni oila hayotiga tayyorlash sohasida o'tkazilgan so'rovnomalar tahlillariga ko'ra, yuqori sinf o'quvchilarida baxtli oila qurishlari va unda sog'lom psixologik muhit bo'lishi uchun ularda ikkita muhim jihat shakllangan bo'lishi zarur. Birinchisi yoshlar g'oyaviy yetuklikka erishgan bo'lishi (iqtisodiy ta'minlanganlikka nisbatan ham), ikkinchisi ular o'zaro munosabat va muloqotda madaniyatli bo'lishi lozim. Shuningdek, oila qurayotgan yoshlarda yana o'zini o'zi anglagan holda o'zidagi kamchiliklarni tuzatishga intilish, voqea va hodisalarga boshqalar nazari bilan qarash, muomalada yuqori madaniyatlilik, boshqalarning xohish va qarashlari bilan hisoblashish, sevgini ulug'lash va unga sadoqat, o'zaro ishonch va bir-birini to'g'ri tushunish, bir-biriga hurmat va g'amxo'rlik [1; 111] kabi fazilatlar ham me'yorida shakllangan bo'lishi e'tirof etilgan.

Zamonaviy oilalar hayot tarzini o'rgangan E.Tiydning qayd etishicha, bugungi kunda ko'proq oilaning 2 ta modeli: an'anaviy (assimetrik) oila modeli va zamonaviy (simmetrik) oila modeli uchraydi. An'anaviy oilada er so'zsiz oilaning iqtisodiy ta'minotchisi va uning boshlig'i sanaladi. Oiladagi ittifoq mavqeini u belgilaydi. Oila hayotiga xos tashkiliy va boshqa muhim muammolar yechimi uning ta'sirida belgilanadi. Ayol esa an'anaviy oilalarda uncha ko'p daromad keltirmaydi yoki nisbatan oz daromad keltiradi. Uning uchun eng muhimi farzand ko'rish (tug'ish) va oila xo'jaligini oqilona yuritish, bolalarni nazorat qilish va ularning kamoloti bilan shug'ullanishdir. Shu bois oila yuritish javobgarligi ko'p jihatdan unga bog'liq va oiladagi mikro muhitni yaratish va shakllantirish vazifasi, asosan, uning majburiyatidadir.

Zamonaviy (simmetrik) oilada er-xotin o'zaro munosabatlari an'anaviy oiladagidan farq qilib (yoki bu oila egalitar (fransuzcha - tenglik) oila ham deyiladi), undagi barcha rollar, xoh u iqtisodiy, xoh u tarbiyaviy bo'lsin, hammasi er-xotinning hamkorligida, birgaligida amalga oshiriladi. Ular oila xo'jaligini birga yuritadilar, uning masalalari va muammolarini birga hal qiladilar, hattoki tarbiyaviy masalalargacha. Bu ko'pincha G'arb mamlakatlari oila tartiblariga xos bo'lib, oilaviy masalalarga bunday yondashuv ko'rinishlari ijtimoiy-etnik va milliy-hududiy xususiyatlarimizga biroz mos kelmaydi. Bu kabi tartib-munosabatlar sekin-asta yosh kelin-kuyov munosabatlarida ziddiyatlar shakllanishiga olib keladi [1; 125-126].

Bundan ko'rinadiki, oiladagi sog'lom psixologik muhit-oila a'zolarining o'zaro hurmatga, sevgi-muhabbatga, javobgarlik-burch hissiga va er-xotinning psixologik va jinsiy o'zaro mosligiga asoslangan juda murakkab, ko'p qirrali va darajali munosabatlari natijasidan iboratdir. Shu bois hozirgi yoshlarga oila buzilishining muhim sabablarini tushuntirish bilan



birga, oila beqarorligiga olib keluvchi juda murakkab omillar ta'sirini ham asoslab berish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yu.S.Kotelnikova yosh oilalarda nome'yoriy inqirozlar yuzaga kelishining psixologik xususiyatlarini birinchilardan bo'lib sistemali o'rgangan va nome'yoriy inqirozlarning yuzaga kelish sabablari, kechish jarayonlari bilan bog'liq xarakterli jihatlarini aniqlagan.

Uning ta'kidlashicha, oila qurayotgan yosh kelin-kuyov oila hayotiga jismoniy, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-psixologik jihatdan qanchalik tayyor bo'lsa, inqiroz shunchalik yengil o'tadi. Shu bois yosh oilaning taqdiri uchun mas'ullar inqiroz bosqichlariga alohida e'tibor bilan yondashib, aynan shu oilaga xos psixologik xususiyatlarni o'rganib, kelin-kuyovga yaqindan madad berib borsalar kelin-kuyov inqiroz bosqichlaridan shunchalik oson o'tib, oila hayotiga tez moslashadilar [3].

Ye.P.Vinifidova turli turmush tajribasiga ega bo'lgan yosh er-xotinlar tomonidan ziddiyatlarning kelib chiqish holatini tushunish jarayoni tuzilishi haqida tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotda turli oilaviy hayot tajribasi bilan yosh oilalarda ijtimoiy vaziyat sifatida yuzaga kelgan mojaroni tushunishning tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlar: kognitiv, hissiy-baholash, qiymat-oriyentasiya yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi nazarda tutilgan. Taqdim etilgan komponentlarning har biri muayyan tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: shuning uchun kognitiv komponent "mojaro" konsepsiyasining ma'nosini, muayyan ziddiyatli vaziyatni tushunishni tahlil qilishni o'z ichiga oladi; hissiy va baholash komponenti ziddiyatni baholash, mojaro paytida faoliyat, mojaro paytida hamkorga munosabat; qiymat-oriyentatsiya yosh oilaning qadr-qimmatini o'z ichiga oladi. Yosh er-xotinlar tomonidan ziddiyatli vaziyatni tushunishning o'ziga xos xususiyatlari haqida mavjud bilimlarni to'ldirish va takomillashtirib borish ham oilada sog'lom psixologik munosabatlarning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi [4].

A.K.Dzagkoyev zamonaviy sharoitda yosh oilani har tomonlama qo'llab-qo'vvatlash tizimini yaratish haqida tadqiqotlar olib borib, uning oltita yo'nalishiga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlab o'tgan:

1. Yosh oilaning turmush sharoitini zamonaviy andozaga ko'tarish;
2. Yosh oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
3. Yosh oilaning tarbiyaviy salohiyatini oshirish;
4. Oilada ayolni hurmat-e'tiborda saqlash;
5. Onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish;
6. Oilaviy qadriyatlarni targ'ib qilishni axborot bilan ta'minlashni takomillashtirish [5].

Mazkur yo'nalishlar yosh oilalarda sog'lom psixologik munosabatlarni ta'minlashning muhim imkoniyatlari sifatida e'tirof etilgan.

N.N.Lidovskaya ro'yxatga olinmagan nikohda turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etgan. Tadqiqotda ro'yxatdan o'tmagan nikohni turmush munosabatlarining muqobil nikoh-oilaviy uslubi sifatida ko'rib chiqilganligi, ularning keng tarqalishi zamonaviy jamiyatda oilani o'zgartirish jarayonining belgilaridan biri ekanligi asoslangan.

Tadqiqot davomida er-xotinning pozitsiyasi (hukmronligi, qaramligi), hissiy munosabatlarning valentligi, psixologik masofa, er-xotinning nikohda muvofiqligi va nikohdan qoniqish bo'yicha rasmiy nikoh bilan solishtirilganda, ro'yxatdan o'tmagan nikohda bo'lgan er-xotinning aynan shunday munosabatlarida sezilarli farqlar aniqlangan. Muallifning e'tirof etishicha, bunday oilalarning keng tarqalishi zamonaviy jamiyatda oilani global o'zgartirish



jarayonining belgilaridan biri bo'lib, tezlashuv, ozodlik, individualizasiya, shaxs erkinligi kabi omillar bilan belgilanadi.

Nikoh munosabatlarining muqobil shaklini tanlash er-xotinning shaxsiy xususiyatlari bilan aniqlanishi mumkin: shaxsiy xususiyatlar, qiymat yo'nalishlari, g'oyalar, munosabatlar, motivlar, nikoh uyg'unligining shakllanishiga ta'sir qiladi. Ro'yxatga olinmagan nikohda avtonomiyalar mexanizmlari nikoh munosabatlarini tartibga solishda yaqinlik mexanizmlaridan ustun turadi. Turmush o'rtoqlarning maqsad uyg'unligini va munosabatlarni qondirishni kamaytiradi, bu esa ro'yxatdan o'tmagan nikohni beqaror holga keltiradi [6].

I.N.Orlova yoshlarning oila qurishga ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi to'g'risida tadqiqotlar olib borgan. Uning ta'kidlashicha, zamonaviy rus talabalari uchun oila haqiqiy qadriyat bo'lib, oilani yaratish, bolalarning tug'ilishi va ularni tarbiyalashga qaratilgan. 61% talabalar oila qurishga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikning yuqori va o'rta darajalariga ega ekanligi aniqlangan.

Oilani yaratishga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik – bu shaxsning oilaviy hayot bilan bog'liq bo'lgan talablar, majburiyatlar va ijtimoiy me'yorlar majmuasini amalga oshirish qobiliyati va ajralmas xususiyat sifatida o'zida ifodalashidir. U ikki blokda - ijtimoiy blok va shaxsiy blokda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy rol blokida hissiy munosabatlarning ahamiyati, umumiy manfaatlarni belgilash, uy-ro'zg'or masalalarini hal qilishga tayyorlik, oiladan tashqari ijtimoiy faoliyatning ahamiyati, ota-ona va tarbiyaviy funksiyaga bo'lgan munosabat, yaqin jinsiy munosabatlarning ahamiyati, nizolardan konstruktiv chiqish munosabati kiradi. Shaxsiy blokda sevgining yuqori qadrlanishi, ustunlik, mas'uliyat, o'ziga ishonch, pragmatizm, qat'iyatlilik, tashqi jozibadorlik, muloyimlik, muvofiqlik va ishonch kabi fazilatlar kiradi. Talaba-yoshlarning yuqori saviyasini belgilovchi oilani yaratishga bo'lgan ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi tarkibida eng aniq tarkibiy qismlar hissiy munosabatlarning ahamiyati, uy-ro'zg'or masalalarini hal etishga tayyorligi, oilaviy nizolarning konstruktiv hal qilinishiga mas'uliyat va kayfiyatning yo'nalganligidir. Shuningdek, zamonaviy talabalar uchun munosabatlarda o'z shaxsiyatining namoyon bo'lishining ahamiyati ortib borayotganligi, yoshlar kerakli oilaviy ittifoqni teng va mustaqil hamkorlarning aloqasi sifatida ko'rishi kuzatilgan [7].

Yosh oilalarda qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi muhim sabablarni o'rgangan S.I.Golod ularni quyidagi ko'rinishlarda: uy xo'jaligini tashkil etish; qarindoshlar bilan munosabatning og'irligi; bolalar va uning tarbiyasi; o'zaro muloqotdagi qiyinchiliklar, moliyaviy qiynalishlar, ichkilikka berilish, qiziqish va e'tiqodlarning turli yo'nalishdaligi, rashk va qizg'anish, jinsiy nomutanosibliklarda namoyon bo'lishini qayd etadi. Ko'pincha oila buzilishining eng muhim sabablari: er-xotinning bir-biriga nisbatan ishonchining yo'qolishi, oila iqtisodining yetarli bo'lmasligi, hissiyotning (sevgi-muhabbatning) susayishi, xarakter xususiyatlarning mos kelmasligi, er-xotindan birining bola ko'rishga layoqati yo'qligi yoki jinsiy qoniqmaslik holatlaridan iboratdir [8].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, yosh er-xotinlar munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, oila-nikoh aloqalarining ahamiyatli jihatlari, er-xotin o'rtasida yuzaga keluvchi ziddiyatlarning ijtimoiy-psixologik omillari va oilaviy



munosabatlarga doir shu kabi boshqa xususiyatlar xorij psixolog olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida keng yoritilganligini ko'rishimiz mumkin.

References:

1. Ковалев С.В. Психология современной семьи. -М.: Просвещение. 1988. -210 с.
2. Обозов Н.Н. Психология межличностных отношений. -Киев: изд-во Ун-та. 1990. - 192 с.
3. Келли Дж. Психология личности: теория личностных конструктов. Санкт - Петербург, 2000, -356 с.
4. Винивидова Е. П. Структура понимания конфликтной ситуации молодыми супругами с разным стажем совместной жизни: диссертация ... кандидата психологических наук [Место защиты: Кур. гос. ун-т]. - Б. м., 2012. - 130 с.
5. Дзагкоев А. К. Молодая семья в современных условиях: На материале Республики Северная Осетия-Алания. Автореф. дисс. к. соц. н. М, 2000, -42 с.
6. Лидовская Н.Н. Взаимоотношения супругов в незарегистрированном браке. диссертация ... кандидата психологических наук. Санкт-Петербург, 2009. -212 с.
7. Орлова И.Н. Социально-психологическая готовность студенческой молодежи к созданию семьи. Санкт-Петербург, 2013, -130 с.
8. Энтоне Гидденс. Социология. -Т.:Шарқ. 2002. -848 б.